



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

## MUNDARIJA

### 12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**  
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**  
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**  
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**  
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**  
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
- 
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**  
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**  
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**  
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**  
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**  
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**  
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

### 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**  
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**  
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**  
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**  
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADJANOV TIMUR ATABAEBICH**  
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**  
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**  
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**  
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**  
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**  
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL  
HUQUQI.  
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**  
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**  
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI  
OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**  
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan  
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**  
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**  
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi  
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**  
Ответственность за stalking в некоторых  
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**  
Институт освобождения несовершеннолетних  
от уголовной ответственности или наказания  
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**  
Некоторые правовые вопросы применения  
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**  
Проблемы миграции Европы в современных  
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**  
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka  
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik  
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**  
Некоторые аспекты пенализации уголовных  
наказаний за коррупционные преступления  
юридических лиц

UDC: 347.963(045)(575.1)

## PROKURATURA ORGANLARI VA VAKILLIK ORGANLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI BO'YICHA XALQARO TAJRIBANING TAHLILI

**Salaydinov Umid Muhiddin o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti  
e-mail: umid.salaydinov98@gmail.com  
ORCID: 0000-0002-3494-7564

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada prokuratura organlari va vakillik organlarining ish faoliyati va ularning o'zaro hamkorligi yuzasidan xalqaro tajriba tadqiq etilgan. Bunda ayrim xorijiy davlatlarda prokuratura organlarining faoliyat mexanizmi va ularning boshqa vakillik organlari, boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik mexanizmlariga oid xalqaro tajriba va milliy qonunchilik tizimi tahlil qilingan. Voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligida jinoyatchi shaxsi tadqiq etiladi. Vakillik organlarida ham qonunchilik normalarini qo'llash bilan bog'liq jarayonlarda ularning o'zaro hamkorligini ko'rishimiz mumkin. Avvalombor, biz ikkala tashkilotning ham davlat boshqaruvidagi o'rnini tahlil qilib olamiz. Bunda biz xorijiy mamlakatlarning tajribasini ham ko'rib chiqamiz. Prokuratura organlarining davlat va boshqaruvdagi o'rnini tahlil qilinganda, birinchi galda, milliy huquq tizimidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra xulosa chiqaradigan bo'lsak, dunyoda prokuratura organlarining xalqaro standartlari belgilanmagan. Chunki, har bir davlat o'z ichki boshqaruv tartib-tamoyillaridan kelib chiqqan holda prokuratura organlari tuziladi. Misol tariqasida, AQSh, Estoniya, Qozog'iston davlatlarida prokuratura ijro hokimiyati tarkibining bir qismi sifatida qaraladi.

**Kalit so'z:** prokuratura, vakillik, prokuratura organlari, vakillik organlari, hamkorlik, xalqaro tajriba.

### АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ И ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ

**Салайдинов Умид Муҳиддин угли,**  
магистрант Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматривается зарубежный опыт работы органов прокуратуры и представительных органов и их взаимодействия. Рассматриваются механизм сотрудничества органов прокуратуры некоторых зарубежных стран и механизмы взаимодействия с другими представительными органами, другими институтами гражданского общества, сравнивается международный опыт и национальная правовая система в области анализа правонарушений несовершеннолетних. Также рассмотрено их взаимодействие в процессах, связанных с применением законодательных норм в представительных органах. Прежде всего проанализирована роль обеих организаций в государственном управлении. Рассмотрен в этом вопросе опыт зарубежных стран. Анализ роли прокуратуры в государстве и управлении показал, что она исходит прежде всего из национальной правовой системы. В заключении отмечено, что в мире не существует международных стандартов для прокуроров. Поскольку в каждом государстве существуют свои внутренние управленческие процедуры, создается собственная прокуратура. В США, Эстонии и Казахстане, например, прокуратура считается частью исполнительной власти.

*Ключевые слова:* прокуратура, представительство, органы прокуратуры, представительные органы, сотрудничество, международный опыт.

## ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE ON RELATIONS BETWEEN PROSECUTOR'S OFFICES AND REPRESENTATIVE BODIES

**Salaydinov Umid Muhiddin ugli,**

Master's student at Tashkent State Law University

**Abstract.** *This article examines international experience in the work of prosecutors and representative bodies and their interaction. It examines the mechanism of cooperation of the prosecutor's office in some foreign countries and the mechanisms of cooperation with other representative bodies, other civil society institutions, the international experience and the national legal system in the analysis of juvenile delinquency. We can also see their interaction in the processes related to the application of legislative norms in representative bodies. First of all, we will analyze the role of both organizations in public administration. We will also consider the experience of foreign countries. When analyzing the role of the prosecutor's office in the state and government, it is primarily based on the national legal system. In conclusion, there are no international standards for prosecutors in the world. Because each state has its own internal management procedures, the prosecutor's office is formed. In the United States, Estonia, and Kazakhstan, for example, the prosecutor's office is considered part of the executive branch.*

**Keywords:** *prosecutor's office, representative office, prosecutor's office, representative bodies, cooperation, international experience.*

### Kirish

Avvalombor biz vakillik organlari va davlatning huquqni muhofaza qiluvchi muhim bo'g'ini bo'gan prokuratura tuzilmasining o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yilishini o'ziyoq muhim jarayon ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Bundan tashqari biz bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro munosabatlarining kengiyotganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'zlangan maqsad ham aslida mushtarakdir. Prokurorlar butun jamiyat nomidan va jamiyat manfaatlarini ko'zlab, qonunni buzish jinoiy-huquqiy ta'sirga sabab bo'ladigan hollarda, inson huquqlari hamda samarali jinoiy sudlov tizimi zarurligini hisobga olgan holda qonunning qo'llanilishini kafolatlaydigan davlat organlaridir [1].

Shunday ekan vakillik organlarida ham qonunchilik normalarini qo'llash bilan bog'liq jarayonlarda ularning o'zaro hamkorligini ko'rishimiz mumkin. Avvalombor, biz ikkala tashkilotning ham davlat boshqaruvidagi o'rnini tahlil qilib olamiz. Bunda biz xorijiy mamlakatlarning tajribasini ham ko'rib chiqamiz. Prokuratura organlarining davlat va boshqaruvdagi o'rnini tahlil qilinganda, birinchi galda, milliy huquq tizimidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, xulosa chiqaradigan bo'lsak, dunyoda prokuratura organlarining xalqaro standartlari belgilanmagan. Chunki har bir davlat o'z ichki boshqaruv tartib-tamoyillaridan kelib chiqqan holda prokuratura organlari tuziladi. Misol tariqasida, AQSh, Estoniya, Qozog'iston davlatlarida prokuratura ijro hokimiyati tarkibining bir qismi sifatida qaraladi. Ispaniya, Bolgariya, Latviya davlatlarida esa sud tarbiyining bir yo'nalishi, Fransiya va Italiya Respublikasida prokuratura organlari sud va ijro hokimiyati o'rtasida turadi. O'zbekiston Respublikasida esa prokuratura organlari hokimiyatning hech bir tarmog'iga kirmaydi, faqat prezident va Oliy Maslis oldida hisobdor sanaladi [2]. Hozirgi davrga kelib prokuratura organlari davlat organlari ichida tutgan o'rne va rolikidan kelib chiqib prokuraturani quyidagi to'rt qismga ajratib olishimiz mumkin va ularning hisobdorlik masalasi ham shundan kelib chiqadi.

1. Prokuratura organlari Adliya vaziligi tarkibiga kiradigan davlatlar qatoriga quyidagilarni keltirib o'tamiz, AQSH, Niderlandiya, Daniya, Suriya, Isroil va shu kabi boshqa davlatlarni ko'rishimiz mumkin. Shu kabi davlatlarda Adliya vaziri bir paytning o'zida bosh prokuror ham bo'lishi mumkin. Misol

tariqasida keltirib o'tamiz, Daniya Qirolligida prokuratura organlari faoliyati "Odil sudlovni amalga oshirish to'g'risida"gi Qonun asosida tartibga solinadi.

Prokuratura organlarining asosiy vazifasi jinoyat ishlarini yuritishdan iborat bo'ladi. Daniya prokuraturasi hududlardagi hokimiyat organlaridan mustaqildir. Daniyada prokuratura Adliya organiga bo'ysindiriladi va unga hisobdor bo'ladi. Bundan tashqari, *Daniya prokuraturasining politsiya xizmati bilan hamkorligi ta'minlangan. Eng quyi prokuror organi xodimining vazifasini politsiyachi bajaradi. Bunday bog'liqlikning sababi politsiya va mahalliy aholi o'rtasidagi aloqalarning kengligidir* [3]. Prokuratura organlari sud huquq-tizimiga kiruvchi davlatlar toifasiga Ispaniya, Latviya, Bolgariya, Kolumbiya Germaniya kabi davlatlarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, Germaniya Federativ Respublikasi prokuratura organlari faoliyati "Sud tizimi to'g'risida"gi Qonun, Jinoyat protsessual kodeks, "Prokuraturaning tashkiliy strukturasi to'g'risida"gi Nizom va prokuratura organlarining ichki tartib-intizomi bilan tartibga solinadi. Germaniya prokuraturasi tashkiliy jihatdan sud tizimi tarkibiga kiradi. Har bir yer sudi (bizdagi viloyat yoki tuman dagi birinchi instansiya sudlari) oldida o'z prokuraturasi mavjud. Germaniya ma'muriy jihatdan 16 ta yirik yerlarga bo'linadi. Shunda Germaniyada 114 ta yer sudlari mavjud bo'lib, har 24 ta yer sudi qoshida Adliya vazirligiga bo'ysunuvchi bosh prokuratura mavjud. Oliy Federal sud qoshida esa Federal Adliya vazirligiga hisobdor hisoblangan bosh prokuratura. Federal Bosh prokuraturasi mavjud. Prokuraturaning asosiy vazifasini jinoyatchilikka qarshi kurashish tashkil etadi. Prokuratura organlari quyidan yuqoriga qarab bo'ysunish tartibi mavjudligi sababli barcha prokurorlar ustidan nazoratni yuqori turuvchi prokurorlar olib boradi. Federal Adliya vazirligi Federal Bosh prokuratura va u bilan ishlaydigan prokurorlarning faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi. Yer Adliya boshqarmalari - bu yerdagi prokuratura organlari (bizdagi viloyat, tuman, shahar prokurorlari tushuniladi) ustidan nazorat qiladi. *Adliya boshqarmalari tomonidan Xizmat nazorat qilish deyilganda xizmat burchini bajarish ustidan tegishli tartibda bajarishni talab qilish vakolatidir.*

*Xizmat nazorati rahbariga prokuror tomonidan o'z faoliyati haqida hisobot berishga majburdir.*

3. Prokuratura organlari davlat hokimiyati tarmoqlaridan alohida bo'lib, ya'ni ijro etuvchi va sud huquq tizimi tarkibiga kirmaydigan davlatlarga Kuba, Laos, O'zbekiston, Xitoy, Vetnam kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Misol tariqasida keltirib o'tamiz, dunyoning bir nechta mamlakatlarida prokuratura organlarini tashkil etish, ish faoliyati, xususiyatidan kelib chiqqan holda prokurorlarni tayinlash va ularni faoliyati ustidan nazorat o'rnatish maqsadida vakillik organlari oldida hisobdordir. Shunday davlatlardan biri *Xitoy Xalq Respublikasi xalq prokuraturasidir*. Xalq prokuraturasi tarkibi Oliy xalq prokuraturasi, mahalliy xalq prokuraturasi, harbiy prokuraturalar va boshqa prokuratura organlaridan iboratdir. Xitoy Xalq Respublikasida uyezd va viloyat darajasidagi prokuratura organlari konsanoat tumanlari, qo'riq yerlar va o'rmon hududlarida o'z bo'limlarini tashkil etgan. Xitoyda prokuratura markazlashgan va quyidan yuqoriga bo'ysunish tartibiga asoslangan holda tuziladi, u tashkiliy jihatdan mustaqil hisoblanadi Xitoy Bosh prokurorini esa Xalq Vakillarining Butunxitoy Majlisi, Oliy Xalq prokurorlarining a'zolarini esa Xalq Vakillarining Butunxitoy Majlisi doimiy komissiyasi tayinlaydi. Oliy xalq prokuraturasi - mahalliy va maxsus prokuratura ishiga, yuqori turuvchi xalq prokuraturasi esa quyi xalq prokuraturasiga rahbarlik qiladi. Bu yerda nomarkazlashuvning ayrim turlari mavjud bo'lib, jumladan mahalliy prokuraturalarning rahbarlari (asosiy prokurorlar) xalq vakillarining mahalliy kengashlarida saylanadi va lavozimidan chaqirib olinadi. *Oliy xalq prokuraturasi Xalq Vakillarining Butunxitoy Majlisi va uning Doimiy qo'mitasi oldida, mahalliy xalq prokuraturalari esa davlat hokimiyatining mahalliy organlari va yuqori turuvchi xalq prokurorlari oldida hisobdor sanaladi.*

4. Dunyoda shunday davlatlar ham borki, prokuratura organlari mavjud bo'lmagan, shunday davlatlar sirasiga Buyuk Britaniya kiradi. Bu yerda prokuratura o'rniga Davlat ayblov xizmati bor. Aytib o'tish kerakki, dunyoning hamma davlatlarida ham prokuratura konstitutsiyaviy institut hisoblanmaydi. Masalan, AQShda Bosh prokuror lavozimi mavjudligi va uning lavozimiga tayyorlash masalalari faqat Konstitutsiyasi bilan tartibga solinadi. Italiya Respublikasida esa Jinoyat protsessual

kodeksi bilan, Fransiya Respublikasida 1958-yilda qabul qilingan Jinoyat protsessual kodeksi bilan tartibga solinishi belgilangan.

Shuningdek, Yaponiyada prokuratura organlarining huquqiy faoliyatini tashkil etish va uning vakolatlari 1944-yilda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi dekret bilan belgilanadi. Germaniya Federativ Respublikasida esa "Sud tuzilmalari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi [5].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Lotin Amerika prokuratura institutining huquqiy asoslari va asosiy vazifalari mazkur davlatlarning Konstitutsiyada belgilangan. Bu davlatlarda prokuratura organlariga alohida bob yaratilgan. Ammo, ba'zi davlatlarning prokuratura organlari sobiq SSSR tuzumidan qolgan institut sifatida qarab umuman mavjud emas yoki juda kam vakolatga ega tashkilot sifatida tashkil etilgan. Bularga Polsha, Litva, Slovakiya kabi davlatlarni misol keltirib o'tishimiz mumkin.

### **Material va metod**

Maqolada tarixiylik, mantiqiy, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, prognozlash kabi usullar hamda tizimli, funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Dunyo mamalakatlarida prokuratura organlarining ish faoliyatini nazariy jihatdan ikki qismga bo'lib olishimiz mumkin.

- Qonun ijrosi ustidan nazoratni olib borish;
- Jinoyatchilik bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish.

Dunyo davlatlarining prokuratura organlari xodimlarni o'z lavozimiga tayinlash va saylash tartibi ham har xil hisoblanadi. Ular asosan ma'muriy-hududiy tuzilishiga bog'liq. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra Prezident bosh prokuror va uning o'rinbosarlarini lavozimiga tayinlasa, Slovakiya Respublikasida esa Bosh prokurorni mamlakat parlamenti taklifi bilan prezident tayinlaydi. Bolgariya Respublikada Bosh prokuror va ularning birinchi rahbarlarini prezident tomonidan Oliy sud kengashi taklif qilgan nomzod tayinlanadi. Yuqorida keltirilib o'tilganidek, Dunyo mamlakatlarida prokuratura organlari har bir davlatning o'z boshqaruvi, ma'muriy va hududiy tuzilishiga bog'liq holda tashkil etilgan. Xorijiy davlatlarda prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish har xil bo'lsada, ularning bosh maqsadi barcha davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Prokuratura institutining huquqiy maqomi va vakolatlari, hisobdorligi haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, 1993-yil Yevropa Kengashining Vena sharida bir mamlakat prokuratura institutini boshqa mamlakat hududiga joriy etishda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqiladi deyilgani ham bejiz emas [6].

*Xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining hisobdorligi* ham davlat faoliyatida prokuratura organlarining o'z boshqaruvi, ma'muriy va hududiy tuzilishi bilan davlat hayotida ishtirok etishiga bog'liqdir. Jumladan, xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlari ko'pincha jinoyatchilik, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanganligi uchun ham politsiya institutlari bilan ham hisobdor bo'ladi [7].

### **Xulosalar**

Xulosa qiladigan bo'lsak, turli mamlakatlarda prokuratura vakolat doirasida vakolat hajmi, shu bilan birga prokuror hamma yerda o'zi yoki boshqa organ bilan hamkorlikni amalga oshiradigan vazifalariga qarab farq qiladi. Odatda, barcha davlatlarning prokuratura organlari farqlari asosan o'sha davlatning Konstitutsiyasining tuzilishi, qonunlari bilan ularga berilgan huquqiy maqomi va davlat hokimiyati bilan o'zaro bog'liqlik darajasi va faoliyat shakli va yo'nalishlarini shu qonunlar mazmunidan kelib chiqqanligi bilan bog'liq. Xorijiy mamlakatlarning prokuratura organlari munitsipial kengashlari oldida hisobdorligi davlatlarning boshqaruv uslubiga qarab belgilanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkinki, prokurorlar yo qonun chiqaruvchi organ yo ijro etuvchi organ tarkibida bo'ladi. Prokuratura davlat hokimiyatining har xil davlat organlari, mahalliy kengashlar, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda yoki hisobdorlikda ishlashi orqali butun davlat hududida tobora kuchayib boradigan jinoyatchilik bilan, chunonchi, korrupsiya alomatlari bilan kurashishda asosiy rol o'ynamog'i lozim. Bu faoliyatni samarali bo'lishi bilan birga

inson huquqlarini hurmat qilishga asoslanishi, jamiyatni rivojlanishi va odil sudlovga yordam beradi. Bundan tashqari, vakillik organlari va uning funksiyasini bajaruvchi organlar bilan prokuratura organlarining o'zaro munosabatlari turli mamlakatlarda o'ziga xos mexanizm orqali yo'lga qo'yilgan.

Bir qismida hisobdorlik masalasi keltirilgan bo'lsa ikkinchi qismida tiyib turish mexanizmiga bog'liqdir. Bizning fikrimizcha, doimo xalq tomonidan saylash yo'li bilan shakllantirilgan tuzilmalar oldida, tayinlangan tuzilmalarning hisobdorligi demokratiyaning yuksak belgisidir. Bundan tashqari, prokuratura organlarining har qanday tuzilmalarda qonunlarning bir xilda bajarilishini nazorat qilish funksiyasini bajarishda hech qanday cheklovsiz, harakat qilishi lozim bo'ladi. Ushbu hamkorlik avvalo shaxs, jamiyat, davlat manfaatini ko'zlamog'i lozim. Biz taklif sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlari va fuqarolik jamiyati institutlari va vakillik organlari bilan o'zaro aloqasini tartibga soluvchi qonun qabul qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz

## REFERENCES

1. Prokurorlar uchun axloq va xulq-atvor bo'yicha Yevropa yo'riqnomasining 3-moddasi [Article 3 of the European Guidelines on Ethics and Conduct for Prosecutors]. Budapesht yo'riqnomasi 2005, may.
2. The Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent. Justice. 2020.
3. Allamurotov A.T., Ergashev A.A. Prosecution in foreign countries. Tashkent, 2009.
4. Madaliyev O. Problems of prosecutorial control. Tashkent, 2006.
5. Halimov A.X. The role of the prosecutor's office in the system of government. T., TSU, 2006
6. Рустамбаев М.Х., Никифорова Е.Н. Хуқуқни муҳофаза қилиш органлари [Law enforcement agencies]. З.Ф. Иноғомжонованинг умумий таҳрири остида. Т.: Ўқитувчи, 2005.
7. Хидоятлов Б.Б. Дознание в Республике Узбекистан [Inquiry in the Republic of Uzbekistan]. Т.: ТГЮИ, 2005.
8. Мадалиев О.М., Алламуратов А.Т. Прокурор назорати [Procurator to watch]. Т.:ТДЮИ, 2004.
9. Додонов В.Н., Крутских В.Е. Прокуратура в России и за рубежом [Prosecutor's Office in Russia and abroad]. М.: Норма, 2001.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov  
**Tahririyat manzili:**  
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.  
**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** www.tsul.uz  
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz  
**E-mail:** tn.tdyu@mail.ru  
**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.